

2025-yilda „Mutolaa zavqi” tanlovini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizom

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom Prezidentning besh muhim tashabbusi doirasida, yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish maqsadida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan **“Mutolaa zavqi”** tanlovi (keyingi o‘rinlarda – tanlov)ni doimiy o‘tkazish tartibini belgilaydi.

II. Loyihaning maqsadlari

2. Tanlovni o‘tkazishdan quyidagi maqsadlar ko‘zlangan:
 - ❖ yosh avlodning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini yanada kuchaytirish;
 - ❖ faol kitobxonlar safini kengaytirish orqali yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirish;
 - ❖ kitobxonlarni ma’naviy rag‘batlantirish.

III. Loyihani o‘tkazish tartibi

3. Mazkur loyiha yakka tartibdagi musobaqa bo‘lib, unda qatnashish uchun ishtirokchilar 1 oy mobaynida o‘zlari istagan 5 ta kitobni o‘qishlari kerak bo‘ladi.
4. Berilgan muddat tugagandan so‘ng har bir ishtirokchi o‘qigan kitoblari bo‘yicha annotatsiya 1 ta kitob uchun 1 bet yozish ko‘p yozmaslik (asar mazmuni, asardagi o‘zini hayotiga qaysi yaxshi tomonini qo‘llamoqchiligi) yozib, maxsus belgilangan botga ro‘yhatdan o‘tgan holda yuborishlari kerak bo‘ladi. „Mutolaa” platformasiga o‘qigan kitobini izohiga ham yozishi kerak.
5. Botga va „Mutolaa” ilovasiga yozish uchun 1 kun vaqt beriladi.
6. Barcha bosqichlar ijtimoiy tarmoqlar orqali habar beriladi.

IV. Baholash va saralash

7. Yuborilgan barcha izohlar o‘qib chiqiladi va baholanadi.

- 8.** O'quvchi va talabalar alohida saralanib olinadi. Ular uchun alohida oromgohlar tashkil etiladi. Talaba va o'quvchi bo'lmagan 14-30 yosh oralig'idagi yoshlar uchun 50 ta joy ajratiladi.
- 9.** Yuqori natija ko'rsatgan 200 nafar yoshlarga „Yoshlar oromgohi” ga 1 haftalik yo'llanma beriladi.
- 10.** Oromgoh mobaynida turli hil kitob musobaqalari o'tkazilinadi.